



BYUDJET TASHKILOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR HISOBIGA OLINADIGAN NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI VA NAZORATI MASALASI

Ramazonov Akmal Samadovich,

Dotsent, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrası, Toshkent moliya instituti, Toshkent, O'zbekiston. Email: akmal121981@gmail.com

ORCID 0000-0002-5478-5953

THE ISSUE OF ACCOUNTING AND CONTROL OF NON-FINANCIAL ASSETS RECEIVED AT THE EXPENSE OF EXTRA-BUDGETARY FUNDS IN BUDGET ORGANIZATIONS

Ramazonov Akmal Samadovich,

Associate Professor, Department of "Budget Accounting and Treasury", Tashkent Institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan. Email: akmal121981@gmail.com

ORCID 0000-0002-5478-5953

JEL Classification: M1, M4, M48

Annotatsiya: Byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va byudjetdan tashqari mablag'larni ko'proq jalb qilish borasida islohotlar olib borilayotgan hozirgi paytda byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini to'g'ri va rejali yuritish muhim.

Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlardan foydalanishda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi ortib borayotganligi ta'lim va tibbiyot tashkilotining moliyaviy hisoboti ma'lumotlari tahlili natijalari orqali ko'rsatib berilgan. Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini to'g'ri tashkil qilish kelgusida ushbu mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirib, tashkilotning moliyaviy holati va ish unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Maqolada nomoliyaviy aktivlar va ularning mohiyati, tashkilot faoliyati uchun nomoliyaviy aktivlarning zazuriyati, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olinadigan nomoliyaviy aktivlar, jumladan asosiy vositalar, tovar moddiy zahiralari hisobi va nazoratini tashkil etishda amaliyotdagi islohotlar

hamda byudjet tashkilotlari uchun nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratida yuzaga kelayotgan muammolar, ularni bartaraf etish borasidagi ilmiy qarashlar hamda hisob ishlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Nomoliyaviy aktivlar hisobini tashkil etishning nazariy muammolari va hisobini takomillashtirishning dolzarb masalalari doimiy ravishda tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilib kelinganligi va bu bo'yicha respublikamizda shakllantirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, byudjet hisobi standartlari, nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etish borasida rivojlangan xorijiy davlatlar va respublikamizning yetakchi olimlarining qarashlari o'rganilib, bu borada mamlakatimizdagi hozirgi vaziyatdan kelib chiqib, ijobiy yechim topish maqsad qilingan. Asosiy vositalarga eskirish hisoblashda ularning foydalanishga topshirilish muddatini hisobga olishni tashkil etish va bu bilan bog'liq holatda tizimli tarzda amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari oshib borayotgan va moliyaviy mustaqillik berilayotgan byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlardan foydalanish hisobi va nazoratini kuchaytirish, ularning hisobini tashkil etishni raqamlashtirish borasida byudjet tashkilotlari uchun "UzASBO" dasturiy majmuasi imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishish va uni yanada takomillashtirish, boshqa dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish masalalariga ham e'tibor qaratilgan.

Abstract: Keeping records and control of extrabudgetary funds correctly and according to plan is important in conditions when the possibility of granting financial independence to budgetary organizations is being considered and reforms are being carried out to attract more extrabudgetary funds.

The increase in the share of extra-budgetary funds in the use of non-financial assets in recent years has been shown by the results of the analysis of the financial statements of the organization (education and medicine). The correct organization of accounting for extra-budgetary funds affects the financial condition of the organization and labor productivity, increasing the efficiency of using these funds in the future.

The article presents scientific views on non-financial assets and their essence, the need for non-financial assets for the organization's activities, reforms in the practice of accounting and control of extra-budgetary funds in budget organizations, including fixed assets, inventories, as well as problems arising in accounting and control of non-financial assets for budget organizations, their elimination, as well as issues of improving accounting work,

suggestions and recommendations are formulated.

Due to the fact that the theoretical problems of the organization of accounting of non-financial assets and topical issues of improving accounting are constantly being studied as an object of research, and in this regard, the normative legal acts formulated in the republic, including budget accounting standards, the views of leading scientists of developed foreign countries and the republic on the organization of accounting and control of non-financial assets are being studied, based on from the current situation in the country, the goal is to find a positive solution. Scientific proposals and practical recommendations have been developed on the organization of accounting for the timing of their commissioning when calculating depreciation on fixed assets and, in this regard, tasks implemented systematically.

In the current conditions of digitalization of the economy, strengthening accounting and control over the use of intangible assets in budget organizations, where the possibilities of financing from extra-budgetary funds are increasing and financial independence is provided, in terms of digitalization of the organization of their accounting, budget organizations need to pay attention to achieving full use of the capabilities of the UzASBO software package and its further improvement, establishing integration with other software products.

Kalit so'zlar: asosiy vosita, byudjet hisobi, nomoliyaviy aktivlar, nazorat, tovar moddiy zahiralar.

Key words: fixed assets, budget accounting, non-financial assets, control, inventory.

Kirish. Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar sharoitida byudjet tashkilotlari uchun byudjetdan tashqari byudjetdan tashqari manbalar hisobiga qo'shimcha daromad olish imkoniyati muhim ahamiyat kasb

etadi. Byudjet tashkilotlarining faqat davlatga qarab qolishining oldini olish va nufuzini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida bosqichma-bosqich moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Bu jarayonda mablag'lar byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari shaxsiy hisobvaraqlariga to'liq kelib tushishi va ulardan foydalanishda ichki nazoratni sifatli tashkil etish byudjet tashkilotlari xodimlarining manfaatdorligini oshirish va ushbu manbalar hisobiga olingan nomoliyaviy va boshqa aktivlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonlarini kengaytiradi. Nomoliyaviy aktivlar byudjet tashkilotlarining xo'jalik faoliyati jarayonida muhim rol o'ynaganligi sababli, nomoliyaviy aktivlarning hisobi va nazoratini tashkil etishda byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish va hisobini to'g'ri olib borilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Nomoliyaviy aktivlar tarkibida asosiy vositalar [9], nomoddiy aktivlar va tovar moddiy zahiralari hisobga olinadi [8].

Nomoliyaviy aktivlar tarkibida birinchi o'rinda asosiy vositalar bo'lib, ular — korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir.

8-sonli BHSda [9] keltirilishicha, **asosiy vositalar** — tashkilotning uzoq muddat davomida (bir yildan ortiq) zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish, tovarlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalar jarayonida foydalaniladigan, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berish mumkin bo'lgan moddiy aktivlardir.

Bundan tashqari, nomoliyaviy aktivlar tarkibida moddiy zahiralari [8] ham hisobga olinadi. **Byudjet tashkilotlari** o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun belgilangan normativlarga asosan ma'lum miqdorda nomoliyaviy aktivlar (asosiy vositalar va tovar-moddiy zahiralari)ga ega bo'lishlari kerak. Nomoliyaviy aktivlar byudjet tashkilotlarining faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi.

“... Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash ... hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat” [10] ekanligini hisobga olib, byudjet tashkilotlarining byudjet va byudjetdan tashqari mablag'laridan oqilona foydalanilishida nomoliyaviy aktivlar hisobini to'g'ri tashkil etilishi muhim hisoblanadi.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari oshib borayotgan va moliyaviy mustaqillik berilayotgan byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlardan foydalanish hisobi va nazoratini kuchaytirish, ularning hisobini tashkil etishni raqamlashtirish borasida byudjet tashkilotlari foydalanadigan “UzasBO” dasturiy majmuasi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va uni yanada takomillashtirish, boshqa dasturiy ta'minot mahsulotlari bilan integratsiyalashuvini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berish lozim.

Material va metod. Byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etishda byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish hisobini to'g'ri yuritishning o'ziga xos jihatlari, byudjet hisobi standartlari talablari hisobga olingan holda tizimli tahlil, analiz, sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi bir qancha tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Nomoliyaviy aktivlar hisobini tashkil etishning nazariy muammolari va hisobini takomillashtirishning dolzarb masalalari doimiy ravishda tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilib kelingan.

Tadqiqot mavzusi doirasida 12-son DSBHXS (IPSAS) "Zahiralar" [3], 17-son DSBHXS (IPSAS) "Asosiy vositalar, inshootlar va jihozlar" [4], 4-son BHMS "Tovar-moddiy zahiralar" [7], 7-son BHS "Tovar-moddiy zahiralar" [8], 8-son BHS "Ko'chmas mulk, bino va jihozlar" [9] hamda mavzuga oid mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari o'rganildi.

Natijalar. Bizningcha, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etishda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan hisobini to'g'ri yuritishda doimiy monitoring olib borish va tahliliy o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Byudjet tashkilotlari faoliyatida nomoliyaviy aktivlarning qanchalik ahamiyati va salmog'ini ko'rsatish maqsadida e'tiborimizni byudjet tashkilotlarining quyidagi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahliliga qaratsak (1-2-jadvallar).

1-jadval ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, Toshkent tibbiyot akademiyasida byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 18,2 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 575,4 % ga oshganligini ko'ramiz. Shu yillar davomida byudjet mablag'lari hisobiga kirim qilingan asosiy vositalarning ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 86,7 % ga kamaygan, lekin, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga kirim qilingan asosiy vositalarning ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 11 baravarga oshgan. Sarf-xarajat qilinishi bo'yicha

byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalar 2022 yilda balansdan chiqarilmagan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalar sarfi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 97,4 % ga kamayganligini ko'ramiz. Byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 4,8 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 788,6 % ga oshgan.

Tovar moddiy zahiralarini bo'yicha esa, byudjet mablag'lari hisobiga yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 600,2 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarining yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 479,7 % ga oshganligini ko'ramiz. Shu yillar davomida byudjet mablag'lari hisobiga kirim qilingan tovar moddiy zahiralarining ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 98,3 % ga kamaygan, lekin, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga kirim qilingan tovar moddiy zahiralarining ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan qariyb 8 baravarga oshgan. Sarf-xarajat qilinishi bo'yicha byudjet mablag'lari hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarini 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 344,0 % ga oshgan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarining sarfi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 5,1 % ga oshganligini ko'ramiz. Byudjet mablag'lari hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarining yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 227 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarining yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 920,3 % ga oshgan.

2-jadval ma'lumotlari asosida, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

1-jadval

Toshkent Tibbiyot akademiyasida nomoliyaviy aktivlar harakati[1]

№	Nomi	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		O'zgarish 2022 yilda 2018 yilga nisbatan %	
		byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab
1	Yil boshiga qoldiq												
1.1	Asosiy vosita	70 387 206,5	7 811 559,8	80733384,8	11045597,7	75 652 985,5	21 898 841,1	81 093 236,3	39 717 926,4	83 219 067,3	52 758 656,0	18,2	575,4
1.2	Tovar moddiy zahira	224 291,7	1 169 732,3	201257,1	1579129,5	224 995,7	2 038 740,2	283 560,5	2 816 079,9	1 570 530,3	6 780 925,0	600,2	479,7
2	Kirim												
2.1	Asosiy vosita	10 393 795,8	3 848 701,7	5 450 274,5	11 082 778,8	5 440 250,8	17 832 354,7	2 295 799,5	13 189 170,3	1 382 867,3	45 413 655,1	- 86,7	1 080,0
2.2	Tovar moddiy zahira	183 157,6	1 250 683,2	147 313,6	1 506 273,2	115 675,9	1 858 558,6	1 556 479,6	5 390 203,7	3 140,0	10 215 797,5	- 98,3	716,8
3	Chiqim												
3.1	Asosiy vosita	47 617,5	614 663,8	10 530 673,8	229 535,4		13 269,4	169 968,5	148 440,7		15 968,1	-100,0	- 97,4
3.2	Tovar moddiy zahira	206 192,2	841 286,0	123 575,0	1 046 662,5	57 111,1	1 081 218,9	269 509,8	1 425 358,6	915 492,9	884 331,3	344,0	5,1
4	Qoldiq												
4.1	Asosiy vosita	80 733 384,8	11 045 597,7	75 652 985,5	21 898 841,1	81 093 236,3	39 717 926,4	83 219 067,3	52 758 656,0	84 601 934,6	98 156 343,0	4,8	788,6
4.2	Tovar moddiy zahira	201 257,1	1 579 129,5	224 995,7	2 038 740,2	283 560,5	2 816 079,9	1 570 530,3	6 780 925,0	658 177,4	16 112 391,2	227,0	920,3

[1] Toshkent tibbiyot akademiyasi yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Pedagogika universitetida byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 183,7 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 617,6 % ga oshganligini ko'ramiz. Shu yillar davomida byudjet mablag'lari hisobiga kirim qilingan asosiy vositalarning ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 130,8 % ga oshgan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga kirim qilingan asosiy vositalarning ulushi ham 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 16,9 % ga oshgan. Sarf-xarajat qilinishi bo'yicha byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalar 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 94,9% ga kamaygan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalar sarfi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 97,2 % ga kamayganligini ko'ramiz. Byudjet mablag'lari hisobiga olingan asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 187,8 % ga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 277,9 % ga oshgan.

Tovar moddiy zahiralari bo'yicha esa, byudjet mablag'lari hisobiga yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 265 % ga oshgan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarning yil boshiga qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 382,8 % ga oshganligini ko'ramiz. Shu yillar davomida byudjet mablag'lari hisobiga kirim qilingan tovar moddiy zahiralarning ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 57,4 % ga kamaygan, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga kirim qilingan tovar moddiy zahiralarning ulushi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 183,6 % ga oshgan. Sarf-xarajat qilinishi bo'yicha byudjet mablag'lari

hisobiga olingan tovar moddiy zahiralari 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 5 baravarga, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarning sarfi 2022 yilda 2018 yilga nisbatan qariyb 2 baravarga oshganligini ko'ramiz. Byudjet mablag'lari hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan mavjud emas, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olingan tovar moddiy zahiralarning yil oxiridagi qoldig'i 2022 yilda 2018 yilga nisbatan qariyb 3,5 baravarga oshgan.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan ham ko'rishimiz mumkinki, so'nggi yillarga nomoliyaviy aktivlardan foydalanishda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi ortib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini to'g'ri tashkil qilish kelgusida bu mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirib, tashkilotning moliyaviy holatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Munozara. Nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etish borasida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o'z ilmiy ishlarida turli xil fikrlarni bildirib o'tishgan:

Rossiyalik olimlar D.A. Odaxovskaya, G.G. Pechennikova [12] tomonidan asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni hisobga olish usullari va amortizasiya hisobi qiyosiy usullarda o'rganilib, bu boradagi hisob ishlari va xarajatlarni kamaytirish hamda soliq hisobotlarini takomillashtirish borasida tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilgan bo'lib, A.A.Ostonokulov va A.S.Ramazonovlarning olib borgan ilmiy ishlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisobotining nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etgan holda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan

2-jadval

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetida nomoliyaviy aktivlar harakati[2]

№	Nomi	2018 yil		2019 yil		2020 yil		2021 yil		2022 yil		O'zgarish 2022 yilda 2018 yilga nisbatan %	
		byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab	byud. mab.	b.t. mab
1	Yil boshiga qoldiq												
1.1	Asosiy vosita	6 613 953,2	8 344 639,2	7 118 899,9	19 636 676,4	16 186 912,4	34 000 218,1	18 185 305,2	51 424 356,5	18 766 224,4	59 879 498,2	183,7	617,6
1.2	Tovar moddiy zahira	17 210,9	817 042,2	34 536,5	1 054 245,8	94 467,1	1 168 591,1		2 705 747,8	62 825,6	3 944 398,3	265,0	382,8
2	Kirim												
2.1	Asosiy vosita	752 880,6	12 283 247,2	9 893 852,4	16 086 764,8	2 001 263,1	17 784 559,2	681 276,0	8 485 579,8	1 737 810,1	14 356 795,3	130,8	16,9
2.2	Tovar moddiy zahira	29 180,5	1 082 507,2	95 245,2	1 804 325,4		2 042 204,5	85 982,5	1 799 346,3	12 440,8	3 070 060,2	- 57,4	183,6
3	Chiqim												
3.1	Asosiy vosita	247 933,9	991 210,0	825 839,9	1 723 223,1	2 870,3	360 420,8	100 356,8	30 438,1	12 577,8	27 431,2	- 94,9	- 97,2
3.2	Tovar moddiy zahira	11 854,9	845 303,6	35 314,6	1 689 980,1	94 467,1	505 047,8	23 156,9	560 695,8	75 266,4	2 293 277,3	534,9	171,3
4	Qoldiq												
4.1	Asosiy vosita	7 118 899,9	19 636 676,4	6 186 912,4	34 000 218,1	18 185 305,2	51 424 356,5	18 766 224,4	59 879 498,2	20 491 456,7	74 208 862,3	187,8	277,9
4.2	Tovar moddiy zahira	34 536,5	1 054 245,8	94 467,1	1 168 591,1				2 705 747,8		3 944 398,3	-	347,8

[2] Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

tashqari mablag'lari bo'yicha [13] daromadlari va xarajatlarining vujudga kelishi hamda ularning hisobini yuritishning amaliy jihatlari, byudjetdan tashqari mablag'lar harakatiga oid moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi ochib berilganligi va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari harakatiga oid moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari [14] tahlil qilinib, tegishli xulosalar shakllantirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Z.U.Xamidova tomonidan byudjet tashkilotida ichki nazorat va ichki audit xizmatini samarali tashkil etish yo'llari, ichki auditni tashkil etishning alohida jihatlari, ichki auditni takomillashtirish bosqichlari [15], tashkilotda ichki nazorat va ichki auditning o'zaro aloqasi, byudjet tashkilotlaridagi ichki audit xizmatini to'g'ri tashkil etilishi bo'yicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

A.Sh.Kuliboyev davlat tibbiyot muassasalari misolida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larini boshqarish va buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish masalasida olib borgan ilmiy ishida davlat tibbiyot muassasalari tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning maqsadli sarflanishi [16], mablag'lardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda ularning moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarning doimiy monitoringini tashkil qilish muhimligiga e'tibor qaratgan.

N.F.Isxakova tomonidan asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga asosan hisobga olishni amaliyotga tatbiq qilishning nazariy va amaliy jihatlari [17] tadqiq qilingan.

Z.B.Suyunova tomonidan asosiy vositalar auditini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari, auditorning bir qator ishchi hujjatlardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar [18] hamda auditorlik

tavakkali xatarini baholashning uslubiy yondashuvlari o'rganilgan.

D.X.Pulatov, M.N.Eshmuradovlar tomonidan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining tashkilot hisobraqamiga to'liq kelib tushishi va ushbu mablag'lardan foydalanishda ichki nazoratni sifatli tashkil etish byudjet tashkilotlari xodimlarining manfaatlarini oshirish va mavjud biriktirilgan mulk va boshqa imkonlardan samarali foydalanishni ta'minlashi [19] hamda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonlarini kengaytirilishi borasida izlanish olib borganlar.

A.R.Suvanqulov, A.E.Isaqovlar tomonidan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarning tarkibi [20], ularni tuzish va taqdim etish tartibini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

S.Tashnazarov tomonidan tovar-moddiy zahiralarni tannarxini shakllantirish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari [11] hamda buxgalteriya balansida zahiralarni tarkibini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Lekin, ushbu xorijiy va mahalliy olimlar o'z ilmiy izlanishlarida byudjet tashkilotlarida hisob va nazoratni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borganiga qaramay, aynan nomoliyaviy aktivlari hisobi va nazoratini tashkil etish bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqot olib borilmaganligi, ushbu mavzuda izlanishlar olib borishimizga sabab bo'ldi.

Hozirda amaliyotda byudjet tashkilotlarida 8-son BHS 8-bob 66-bandiga asosan, asosiy vosita ob'yektiga amortizatsiya xarajatlarini hisoblash, ob'yekt asosiy vosita tarkibiga qo'shib olingan oydan keyingi oying birinchi kunidan boshlanishi va obyekt balansdan

chiqarilmaguniga yoki to'liq amortizatsiya hisoblanilguniga qadar davom etishi, belgilangan [9].

Lekin, fikrimizcha tashkilot balansiga qabul qilingandan boshlab ushbu ob'yektga amortizatsiya xarajatlarini hisoblash ayrim hollarda hisob ishlarida biroz xatolikka olib kelishi mumkin. Chunki ko'p hollarda asosiy vosita ob'yekti tashkilot balansiga qabul qilangani zahoti foydalanishga topshirilmaydi. Asosiy vosita olingandan, foydalanishga berilgungacha oylab va yillab vaqtincha saqlanib turishini inobatga olish lozim. Bizningcha bu jarayonda ushbu ob'yektga amortizatsiya xarajatlarini hisoblash xato bo'ladi.

Xulosa. Nomoliyaviy aktivlar byudjet tashkiloti faoliyatida muhim o'rin egallashini va mablag' ishlatilishi bo'yicha salmog'ini inobatga olib, mavzu yuzasidan o'rganishlar va amalga oshirilgan tahlillar asosida hamda yuqorida nomlari keltirilgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlarini inkor etmagan holda, ayrim taklif va mulohazalarimizni keltiramiz.

Fikrimizcha, byudjet tashkilotlarida nomoliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini takomillashtirishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, tashkilot balansiga tegishli tartibda kelib tushgan, lekin hali foydalanishga topshirilmagan nomoliyaviy aktivlarning hisobini alohida yuritilishini tashkil qilish lozim.

Buning uchun 2-sonli BHS "Yagona schyotlar rejasi" [6] ning 220 000 Nomoliyaviy aktivlar aktiv schyoti tarkibida 224 000 – Ombordagi nomoliyaviy aktivlar schyotini hamda uning tarkibida tegishli subschyotlarni ochish maqsadga muvofiq.

Sotib olingan nomoliyaviy aktivlarning sotib olish narxi hisobda

240 000 "Nomoliyaviy aktivlarga kapital qo'yilmalar" schyotining tegishli Nomoliyaviy aktivlarni xarid qilishni aks ettiruvchi yetkazib berish va boshqa qo'shimcha xarajatlarini aks ettiruvchi subschyotlarining debetiga (ushbu xarajatlar mazkur Nomoliyaviy aktivlarning dastlabki qiymatini oshiradi) va amalga oshirilgan operatsiyaning mazmunidan kelib chiqqan holda 341 000 "Budjet tashkilotlarining turli hisob-kitoblari bo'yicha kreditor qarzlari" schyotining tegishli schyotlarining hamda boshqa tegishli subschyotlarining kreditiga yoziladi. Nomoliyaviy aktivning dastlabki qiymati bo'yicha kirim qilinishi (agar darhol foydalanishga topshirilmasa) 224 000 "Ombordagi nomoliyaviy aktivlar" schyotlarining tegishli subschyotining debetiga va 240 000 "Nomoliyaviy aktivlarga kapital qo'yilmalar" schyotining tegishli subschyotlarining kreditiga yozilishi lozim. Nomoliyaviy aktiv foydalanishga berilganda debet 221 000, kredit 224 000 provodkasi beriladi.

Ikkinchidan, 3-sonli BHS "Byudjet hisoboti"ning 9-ilovasi "Tovar-moddiy zaxiralar va nomoliyaviy aktivlar harakati to'g'risidagi hisobot"ga tegishli tartibda o'zgartirish kiritgan holda, Ombordagi nomoliyaviy aktivlar (224 000) qatorini qo'shish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ushbu o'zgarishlarni "Uzasbo" dasturiy majmuasiga integratsiyalashuvini amalga oshirish kerak.

Buning natijasida, tashkilotda hali foydalanishga topshirilmasdan vaqtincha omborda saqlanayotgan nomoliyaviy aktivlarga nisbatan ortiqcha amortizatsiya xarajati hisoblanishining oldi olinadi hamda byudjet tashkilotlarining nomoliyaviy aktivlari hisobini yuritishni takomillashtirishga erishamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360-son
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprel. O'RQ-404-son.
3. International public sector accounting standards (IPSAS) -12, Inventories. New York, December – 2006
4. International public sector accounting standards (IPSAS) -17, I Property, Plant, and Equipment. New York, December – 2006
5. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riq-noma. O'z. Res. AV da 22.12.2010 yilda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, (17.03.2018 y. AVda 2169-2-son bilan ro'yxatga olingan yangi tahriri)
6. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 20 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3078
7. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BXMS) "Tovar-moddiy zahiralari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020 yil 30 iyunda 3259-tartib raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
8. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (7-sonli BHS) "Tovar-moddiy zahiralari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 14 yanvarda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3120
9. O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobining standarti (8-sonli BHS) "Ko'chmas mulk, bino va jihozlar" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 20 martda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3144
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: —"O'zbekiston" NMIU, 2017.
11. Tashnazarov S. Tovar-moddiy zahiralari tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil
12. Д.А. Одаховская, Г.Г. Печенникова Бухгалтерский и налоговый учет основных средств, нематериальных активов и амортизационных отчислений в целях развития и совершенствования подходов к оценке имущества компании Известия Байкальского государственного университета, №1 113-122 ст, 2019 г.
13. Ramazonov A. et al. Directions for improving accounting in budget organizations during the digital economy //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 2. – С. 23.
14. Ostonokulov A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 296. – С. 06029.
15. Xamidova Z.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. –T.:TMI, 2021. –58 b.



16. Kuliboyev A.Sh. Davlat tibbiyot muassasalarida boshqaruv hisobini tashkil etish bosqichlari. Moliya va Bank ishi Jurnal, – № 1, 84–89 b. 2022 y.

17. Isxakova N.F. Asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talabi bo'yicha yuritishning dolzarb masalalari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – № 1, fevral, 2023 yil. <https://interfinance.uz>

18. Suyunova Z.B. Asosiy vositalar auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta'lim Jurnal, 6-son 155-159 betlar. 2022-yil

19. Pulatov D.X., Eshmuradov M.N. Byudjet tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi hisobi va nazoratini takomillashtirish. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 02, February 2022 536-543 r

20. Suvanqulov A.R., Isaqov A.E. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etish. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 02, February 2022 552-559 r